



Adizova Dildora Rustam qizi

ToshDO‘TAU Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrası doktoranti

Annotatsiya: Mazkur ishda rang nomlari asosidagi frazeologik birliklarning o‘zlashtirilish jarayoni psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Rang iborolari tilning estetik va emotsional qatlamida alohida o‘rin tutib, inson tafakkuri, madaniy tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi muhim vosita sifatida ko‘riladi. Tadqiqot davomida rangga oid frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, ularning metaforik va ramziy ma‘nolari hamda bola va kattalar tafakkurida qanday idrok qilinishi o‘rganildi. Ishda ingliz, rus va boshqa yevropa tillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar, shuningdek, o‘zbek tilshunosligi doirasidagi ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilindi. Qiyosiy natijalar rang iboralarining o‘zlashtirilishida madaniy omil, ijtimoiy tajriba va yosh xususiyatlari hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Jumladan, kichik yoshdagi o‘quvchilar rang iboralarini ko‘proq denotativ (asosiy rang ma‘nosi) asosida talqin qilsa, katta yoshdagilar ularning ko‘chma, metaforik va ramziy qatlamlarini ham anglay olishi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqotda rang iboralarining xalq og‘zaki ijodida, badiiy adabiyotda hamda kundalik nutqda qo‘llanish darajasi, ularning psixolingvistik idroki, madaniyatlararo o‘ziga xosliklari hamda tarjimada yuzaga keladigan muammolar ko‘rib chiqildi. O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi rangga oid frazeologik birliklarning semantik ekvivalentligi va farqlari aniqlanib, ularning ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga o‘zlashtirilishi bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rang iboralarining o‘zlashtirilishi jarayonida kognitiv tajriba, psixologik tayyorgarlik, yosh omili va milliy-madaniy kontekst muhim ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy ish psixolingvistika, frazeologiya va kognitiv lingvistika sohalarida rang iborolari o‘zlashtirilishini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki kompleks tadqiqotlardan biri bo‘lib, lingvodidaktik amaliyotda ham qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: rang iborolari, frazeologik birliklar, psixolingvistika, metafora, kognitiv lingvistika, madaniyatlararo qiyos, o‘zlashtirish jarayoni.

Annotation: This research investigates the process of acquiring color-related idiomatic expressions from a psycholinguistic perspective. Idioms based on color terms hold a special place in the aesthetic and emotional layers of language, serving as an important means of reflecting human cognition, cultural experience, and worldview. The study explores the semantic features of color idioms, their metaphorical and symbolic meanings, and how they are perceived by children and adults. The research draws on studies conducted in English, Russian, and other European languages, as well as Uzbek linguistic sources, in order to provide a comparative analysis. Findings demonstrate that cultural factors, social experience, and age differences play a crucial role in the





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

acquisition of color idioms. Specifically, younger learners tend to interpret color expressions through their basic, denotative meanings, whereas older learners are able to comprehend metaphorical and symbolic layers as well. In addition, the study examines the use of color idioms in folklore, literary works, and everyday speech, focusing on their psycholinguistic perception, cross-cultural specificities, and challenges in translation. A comparative analysis of semantic equivalence and differences between Uzbek, English, and Russian idioms was carried out, and methodological recommendations were developed for teaching and learning such expressions. The results indicate that cognitive experience, psychological readiness, age-related factors, and cultural context are essential in the acquisition of color idioms. This research represents one of the first comprehensive studies devoted to the psycholinguistic acquisition of color idioms in Uzbek, English, and Russian, and it provides practical value for psycholinguistics, phraseology, cognitive linguistics, and applied linguistics.

Keywords: color idioms, phraseological units, psycholinguistics, metaphor, cognitive linguistics, cross-cultural comparison, acquisition process.

Til va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqadorlik psixolingvistikaning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Til birliklari, xususan, frazeologizmlar insonning kognitiv faoliyati, idrok jarayoni va madaniy tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan, rang nomlari bilan bog'liq iboralar alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Chunki rang tushunchasi nafaqat tabiiy sezgi va idrok mahsuli, balki ma'naviy-madaniy ramz sifatida ham til tizimida faol qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilida "oq yo'l", "qora kun" iboralari ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni, hissiy holatlarni yoki abstrakt tushunchalarni ifodalaydi. Ingliz tilida ham shunga o'xshash iboralar uchraydi: "to be in the red" (qarzdor bo'lish), "green light" (ruxsat berish), "black mood" (yomon kayfiyat). Bu holat rang metaforalari universalligi va milliy xususiyatini bir vaqtda namoyon qiladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bunday iboralarni o'zlashtirish jarayoni ikki asosiy bosqichda kechadi:

Literal bosqich – bola rangni fizik xususiyat sifatida qabul qiladi (masalan, "qizil olma" – haqiqiy rang).

Metaforik bosqich – bola rang so'zining ramziy ma'nosini tushuna boshlaydi (masalan, "qizil yuz" – uyaliq, "qora kun" – og'ir vaziyat).

Bu bosqichlarning shakllanishi yosh, madaniy kontekst, til tajribasi va kognitiv rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuningdek, rang iboralarining o'zlashtirilishi turli xalqlarda turlicha kechishi mumkin. Masalan, rus tilida "белая зависть" (oq hasad) iborasi mavjud bo'lsa, o'zbek tilida bunday birikma ishlatilmaydi. Ingliz tilida esa "white lie" iborasi (zararsiz yolg'on) keng tarqalgan yoki turklarda ham "beyaz yalan" iborasi yuqoridagi ibora bilan bir mano berdi. Lekin o'zbek tilida bunday iboraga duch kelmaysiz.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Bolalarda literal va metaforik bosqichlarning shakllanishi

Rang tushunchalari insonning kognitiv rivojlanishida eng erta shakllanuvchi sezgi birliklaridan biridir. Bola dunyoni avvalo ko‘rish sezgisi orqali idrok etadi va rang kategoriyasi uning tafakkurida dastlabki asosiy semantik maydonlardan biri sifatida qaror topadi. Shu sababli rangga oid iboralar ham bolaning lug‘at boyligida juda erta paydo bo‘ladi. Biroq ularning o‘zlashtirilishi bosqichma-bosqich amalga oshadi: dastlab literal (bevosita) ma‘no, keyinchalik metaforik (ko‘chma) ma‘no o‘zlashtiriladi.

Piaget nazariyasi asosida bosqichlar

Shveysariyalik psixolog J.Piaget (1962)ning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola tafakkuri quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

1. Sensor-motor bosqich (0–2 yosh): bola ranglarni ko‘rish orqali idrok etadi, lekin ularni nomlash yoki tushunish qobiliyatiga ega emas. Masalan, qizil olmani yashil olmada farqlay oladi, ammo “qizil” so‘zini hali ishlatmaydi.

2. Preoperatsional bosqich (2–6 yosh): bola rang nomlarini egallay boshlaydi. Shu davrda “qizil olma”, “oq qog‘oz” kabi so‘z birikmalarini literal tarzda qo‘llaydi. Metaforik ma‘nolar esa hali tushunilmaydi.

3. Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh): bola rang so‘zining ko‘chma ma‘nolarini asta-sekin tushuna boshlaydi. Masalan, “qora kun”ni oddiy “qora rangdagi kun” emas, balki “og‘ir ahvol” sifatida talqin qilishga qadam qo‘yadi.

4. Formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan yuqori): bola abstrakt fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi, rang metaforalarini to‘liq tushunadi. Masalan, “oq yo‘l” iborasini poklik, ezgulik ramzi sifatida idrok etadi.

Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi

Rus psixologi L.S.Vygotskiy (1982) esa rang iboralarini o‘zlashtirishda ijtimoiy omillar muhim ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bola metaforik iboralarni mustaqil kashf etmaydi, balki kattalar nutqi orqali o‘zlashtiradi. Masalan, ota-ona “senga oq yo‘l tilayman” deganda, bola dastlab bu ifodani literal qabul qiladi, keyin suhbat va tajriba asosida ramziy ma‘nosini anglaydi.

Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola kattalar yordamida o‘zidan yuqori darajadagi semantik tushunchalarni o‘zlashtiradi. Rang metaforalari ham shu jarayon orqali idrok qilinadi.

Leontevning faoliyat nazariyasi

A.N.Leontev (1977) esa til birliklarini o‘zlashtirishni faoliyatga bog‘laydi. Rang iboralarini bola ko‘pincha kundalik hayotiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi: maktabda “qizil baho”ni eshitganda, yo‘lda “yashil chiroq”ni ko‘rganda, oilada “oq yuz” iborasini eshitganda ularning ramziy ma‘nosi shakllanadi.

Literal va metaforik o‘zlashtirish misollari

Literal bosqich (5–7 yosh):

- “Qizil yuz” – “yuz qizil bo‘lib qolgan”.
- “Oq yo‘l” – “yo‘lning rangi oq”.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Metaforik bosqich (11–12 yosh):

- “Qizil yuz” – “uyalish, or qilish”.
- “Oq yo‘l” – “baxt va omad tilash”.

Shu jarayon psixolingvistik jihatdan muhim: rang so‘zining ko‘chma ma‘nosi avval metaforik uzviy bog‘lanish orqali shakllanadi, keyinchalik esa frazeologik birlik sifatida tezda tanib olinadi.

Rang iboralarini tushunish mexanizmlari: psixolingvistik va kognitiv yondashuvlar

Rang va idrokning o‘zaro bog‘liqligi

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, rang nomlari bilan bog‘liq iboralarini o‘zlashtirish insonning kognitiv tajribasi va lingvistik bilimlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir mahsulidir. A.A.Leontev (1997) ta‘kidlaganidek, til birliklari, jumladan frazeologizmlar, avvalo idrok jarayonida shakllangan konseptlar orqali tushuniladi. Rang tushunchasi ham sensor tajribalardan kelib chiqib, keyinchalik metaforik umumlashtirishlar orqali kengayadi. Masalan, bola dastlab “qizil”ni rang sifatida ko‘rsa, keyinchalik “qizil yuz” iborasini g‘azab, uyalish yoki sog‘liq bilan bog‘lashni o‘rganadi.

Lakoff va Johnson metafora nazariyasi

Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ishlab chiqilgan kontseptual metafora nazariyasi rangli iboralarini anglash mexanizmini tushuntirishda muhimdir. Masalan, “oq niyat” iborasida oq rang “poklik” kontsepti bilan bog‘langan bo‘lsa, “qora kun” iborasida qora rang “musibat, qayg‘u” kontseptini chaqiradi. Bu metaforik xaritalash jarayoni har bir madaniyatda ma‘lum darajada umumiy bo‘lsada, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarga ham ega (Wierzbicka, 1992).

Glucksberg modeli va idiomlarni qayta ishlash

S.Glucksberg (2001)ning fikricha, idiomlarni anglash jarayonida inson miyasi har doim ham iboraning literal (so‘zma-so‘z) ma‘nosidan boshlamaydi. Ba‘zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri metaforik ma‘no faollashadi. Masalan, ingliz tilida “to feel blue” (ma‘yus bo‘lish) iborasida “blue” so‘zining literal ma‘nosi e‘tiborga olinmaydi, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri metaforik ramzga murojaat qilinadi. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash holatni ko‘rish mumkin: “oq yo‘l” iborasida “oq” rangi literal ma‘nodan ko‘ra, ramziy “baraka, ezgulik” ma‘nosida tezroq anglashiladi.

Psixolingvistik mexanizmlar

Rangga oid iboralarini anglashda quyidagi mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi:

1. Assotsiativ bog‘lanishlar – rangni muayyan predmet, hissiyot yoki ijtimoiy qadriyat bilan bog‘lash. Masalan, “yashil” → tabiat, hayot, yangilanish.
2. Semantik kengayish – rang so‘zining lug‘aviy ma‘nosidan tashqariga chiqib, ramziy ma‘nolarni qamrab olishi.
3. Madaniy konvensiyalar – jamiyat tomonidan qabul qilingan rang ramzlari. Masalan, o‘zbek tilida “oq” → poklik, tozalik; xitoy madaniyatida esa oq → aza ramzi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

4. Kontekstual talqin – ibora qaysi vaziyatda qo'llanilishiga qarab turli ma'no kasb etishi.

Psixolingvistik eksperimentlar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar rangga oid iboralarni anglashda literal va metaforik ma'nolarni bir vaqtning o'zida faollashtirishi mumkin (Cacciari, Tabossi, 1988). Masalan, "qizil chiroq" iborasi transport kontekstida literal "stop" belgisi sifatida, ramziy kontekstdagi matnda esa "to'siq, taqiq" ma'nosida qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, rus psixolingvisti N.D.Arutyunova (1999) rang metaforalarini "ramziy kodlar tizimi" sifatida izohlaydi va ularning tilshunoslikdagi semantik universallik hamda madaniy o'ziga xoslikni birlashtiruvchi xususiyatiga urg'u beradi.

Bolalar va kattalar o'rtasidagi farqlar

Kattalar rang iboralarini o'zlashtirishda odatda semantik ko'p qatlamlilikni tezroq anglaydi. Masalan, kattalar uchun "yashil maydon" sport bilan bog'lanishi mumkin, "yashil chiroq" esa "yo'l ochiq" ramzi sifatida talqin qilinadi. Bolalar esa ko'pincha literal ma'nodan metaforik ma'noga o'tishda qiyinchilikka duch keladi. Bu hodisa Cacciari, Levorato (1989) tomonidan o'tkazilgan eksperimentlarda ham isbotlangan: kichik yoshli bolalar idiomatik iboralarni ko'proq so'zma-so'z ma'noda talqin qilgan.

Madaniy kontekstning o'rni

Rangga oid iboralarni anglashda madaniy kontekst ham katta ahamiyatga ega. Masalan:

- O'zbek tilida "oq" rang – poklik, ezgulik, baxt timsoli. "Oq yo'l", "oq niyat" iborolari buni ko'rsatadi.
- Rus tilida "belyy" ("oq") ko'pincha begunohlik, sof ko'ngillik bilan bog'lanadi, lekin ayrim hollarda sovuqlik yoki bo'shlik ramzi ham bo'lishi mumkin.
- Ingliz tilida esa "white lie" iborasi "zararsiz yolg'on"ni anglatadi, bu o'zbek madaniyatida "oq" rang bilan bog'liq emas.
- Xitoy madaniyatida oq rang aza ramzi sifatida qabul qilinadi, bu esa o'zbekcha talqin bilan qarama-qarshi turadi.

Shunday qilib, rang iboralarining o'zlashtirilishi har doim ham universal bo'lmay, balki madaniy kodlarga bog'liq bo'ladi (Wierzbicka, 1992).

Psixolingvistik tajribalar

Yevropa tadqiqotlarida (Boers, Demecheleer, 2001) rangli idiomlarning o'zlashtirilishi ikkinchi til o'rganuvchilarda madaniy tafovutlar tufayli qiyin kechishi aniqlangan. Masalan, ingliz tilida "to see red" (g'azablanish) iborasini fransuz yoki o'zbek o'quvchilari literal qabul qilib, uni to'liq metaforik ma'noda tushunmay qolishi mumkin.

O'zbek bolalari bo'yicha kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ular ko'pincha iboralarni ota-onalardan yoki ertak, maqol, topishmoqlardan o'zlashtiradi. Masalan, "Oq yuvib, oq taramoq", "Qora kun" kabi iboralar avval emotsional idrok qilinadi, keyinchalik semantik kengayishga ega bo'ladi.





Rangga oid iboralar turli xalqlarda turlicha semantik va madaniy talqinga ega bo'lsa-da, ularning psixolingvistik o'zlashtirilishi umumiy bosqichlarga ega: avval literal, keyin metaforik talqin shakllanadi. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rang metaforalari bir tomondan universal kognitiv asosga, ikkinchi tomondan milliy-madaniy xususiyatlarga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aitchison, J. (2010). The Articulate Mammal: An Introduction to Psycholinguistics. Routledge.
2. Apresyan, Y.D. (1995). Izbrannye trudy. T. 2: Integral'noe opisanie yazyka i sistemnaya leksikografiya. Moscow: Yazyki russkoy kul'tury.
3. Arutyunova, N.D. (1999). Yazyk i mir cheloveka. Moscow: Yazyki russkoy kultury.
4. Boers, F., Demecheleer, M. (2001). Measuring the impact of cross-cultural differences on learners' comprehension of imageable idioms. *ELT Journal*, 55(3), 255–262.
5. Cacciari, C., Levorato, M. C. (1989). How children understand idioms in discourse. *Journal of Child Language*, 16(2), 387–405.
6. Cacciari, C., Tabossi, P. (1988). The comprehension of idioms. *Journal of Memory and Language*, 27(6), 668–683.
7. Glucksberg, S. (2001). Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. Oxford University Press.
8. Jackendoff, R. (2002). Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. Oxford University Press.
9. Kövecses, Z. (2002). Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press.
10. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
11. Leontev, A.A. (1997). Osnovy psixolingvistiki. Moscow: Smysl.
12. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
13. Telia, V.N. (1996). Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. Moscow: Shkola "Yazyki russkoy kultury".
14. Vygotsky, L.S. (1962). Thought and Language. MIT Press.
15. Wierzbicka, A. (1992). Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. Oxford University Press.
16. Qk'shjanova, M. (2005). O'zbek tilida rang bildiruvchi leksikaning semantik-struktur xususiyatlari. Toshkent: Fan.
17. Mahmudov, N., Madvaliev, A. (2002). O'zbek tili frazeologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

18. Abdurahmonov, G'. (1981). O'zbek frazeologiyasi masalalari.
Toshkent: Fan.

19. Alefirenko, N.F. (2002). Frazeologiya v svete sovremennoy lingvistiki. Moscow:
Academia.

